

## NODAVLAT OTMLARDA O‘QITUVCHILARNI TANLASH VA MALAKASINI OSHIRISH SIYOSATI

*"UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE"*

*Nodavlat universitetida Ta’limni rivojlantirish*

*bo'yicha rektor maslahatchisi*

*Nasirov Mansur Ibrohimovich*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada nodavlat oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarni tanlash mezonlari, ularning malakasini oshirishga doir mavjud siyosatlar va amaliyotlar tahlil qilinadi. Xususiy OTMlarda sifatli ta’limni ta’minalash uchun raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi va zamonaviy metodikaga ega pedagoglarni jalg etish muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, maqolada malaka oshirishning xalqaro tajriba asosida tashkil etilishi, doimiy kasbiy rivojlanish tizimi, onlayn va offlayn kurslar, hamda ichki monitoring va baholash tizimlari yoritilgan. Tadqiqot davomida nodavlat OTMlarda kadrlar siyosatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ham ilgari suriladi.

**Kalit so‘zlar:** Nodavlat OTM, o‘qituvchi tanlovi, malaka oshirish, ta’lim sifati, xususiy ta’lim siyosati, pedagogik rivojlanish, kadrlar siyosati, innovatsion yondashuv

So‘nggi yillarda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xusan, nodavlat oliy ta’lim muassasalarining soni ortib borayotgani mamlakatda ta’limning raqobatbardoshligi va sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususiy sektorning ta’lim sohasiga faol kirib kelishi bilan birga, pedagogik kadrlarni tanlash va ularning malakasini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘qituvchi — ta’lim sifatining asosiy kafolatchisi sifatida, nafaqat bilim egasi, balki doimiy yangilanish va rivojlanishga tayyor shaxs bo‘lishi lozim. Shu sababli nodavlat OTMlar uchun yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, o‘quvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantira oladigan o‘qituvchilarni jalg etish va ularni doimiy qo‘llab-quvvatlash siyosati muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Ushbu maqolada aynan nodavlat oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni tanlash jarayoni, ular bilan ishslash strategiyalari, hamda malaka oshirish tizimining samaradorlik darajasi yoritiladi. Shu bilan birga, mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha takliflar keltiriladi.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni tanlash va ularning malakasini oshirish siyosati ta’lim sifatini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Bu jarayon davlat oliy ta’lim muassasalariga nisbatan yanada izchil, tanlab va ehtiyyotkorlik bilan amalga oshiriladi. Sababi, xususiy oliy ta’lim muassasalari raqobat

muhitida faoliyat yuritadi va ular ta'lim bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlash uchun eng avvalo pedagogik jamoaning salohiyatiga tayanadi. Shu bois, o‘qituvchilarni tanlashda ularning ilmiy salohiyati, amaliy tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish darjasи, xorijiy tillarni bilish ko‘nikmasи, shuningdek, shaxsiy fazilatlari va kasbiy intilishi alohida e’tiborga olinadi. Ba’zi nodavlat OTMLar hatto o‘qituvchini ishga qabul qilishdan oldin sinov darsi o‘tkazadi yoki bir necha bosqichli suhbat asosida baholaydi.

O‘qituvchining o‘z ustida muntazam ishlashi, ilmiy-tadqiqotlar olib borishi, yangi metodik yondashuvlarni amaliyatga tatbiq etishi — bu nodavlat OTMLar uchun asosiy mezon hisoblanadi. Shu sababli, ko‘pgina nodavlat oliy ta’lim muassasalarini o‘z o‘qituvchilari uchun doimiy malaka oshirish tizimini joriy etgan. Bu jarayon odatda ichki va tashqi shakllarda tashkil etiladi. Ichki shakllarga universitet doirasida o‘tkaziladigan seminar-treninglar, uslubiy mashg‘ulotlar, o‘zaro tajriba almashuvlari kiradi. Tashqi shakllar esa xalqaro hamkorlik doirasida chet eldagи oliy ta’lim muassasalarida stajirovka o‘tash, xalqaro onlayn kurslarda qatnashish, ilmiy konferensiyalarga qo‘shilish orqali amalga oshiriladi. Ayrim OTMLar Coursera, EdX, Udemy kabi global platformalar bilan hamkorlik qilib, o‘qituvchilarini zamonaviy dars berish texnologiyalari bilan tanishtiradi.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalarida pedagoglarning faoliyatini reyting asosida baholash tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Bu tizim orqali o‘qituvchilarning ilmiy maqolalari, dars berish sifati, talaba fikr-mulohazalari, ishtirok etgan loyihalari va boshqa mezonlar asosida umumiy baho beriladi va yuqori natijalarga erishganlar moddiy va ma’naviy rag‘batlantiriladi. Bunday yondashuv o‘qituvchilarni doimiy izlanishga, yangilikni o‘rganishga, o‘z ustida ishslashga undaydi.

Ayrim muammolar ham kuzatilmоqda. Jumladan, malaka oshirish tizimining izchil va rejalahtirilgan tarzda olib borilmasligi, ilmiy izlanishlar uchun zarur infratuzilmaning to‘liq shakllanmaganligi, pedagoglarga raqobatbardosh ish haqi to‘lash imkoniyatining cheklanganligi kabi masalalar mavjud. Shu bilan birga, ba’zi nodavlat OTMLarda kadrlar oqimi yuqori bo‘lib, bu holat ta’lim jarayonining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun nodavlat oliy ta’lim muassasalarini o‘zining strategik rivojlanish rejasida kadrlar siyosatini ustuvor yo‘nalish sifatida belgilashi, o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan grant va stipendiyalarni yo‘lga qo‘yishi, davlat bilan hamkorlikda malaka oshirish markazlarini tashkil etishi zarur. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish va xalqaro ilmiy bazalarga kirishni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ham o‘qituvchilarning salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

## Xulosa

Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni tanlash va malakasini oshirish siyosati ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Mazkur muassasalar raqobatbardosh sharoitda faoliyat yuritayotganligi sababli, ularda pedagog kadrlarning ilmiy salohiyati, zamonaviy yondashuvlarga ega bo'lishi, uzluksiz rivojlanishga intilishi alohida ahamiyat kasb etadi. O'qituvchini tanlashda nafaqat uning akademik darajasi va tajribasi, balki innovatsion fikrashi, texnologiyalarni qo'llay bilishi va chet tillarini egallaganligi ham muhim mezon sifatida qaraladi.

Malaka oshirish siyosatining samarali olib borilishi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshirishga, ta'lim sifatini yaxshilashga va talabalarning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ichki va tashqi malaka oshirish shakllarining uyg'unlashtirilgan holda amalga oshirilishi, xalqaro tajribalarning o'zlashtirilishi va zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi bu boradagi ijobiy natijalarni belgilab bermoqda.

Ammo mavjud muammolar — rejalashtirilmagan malaka oshirish tizimi, ilmiy faoliyatga yetarli sharoitlarning mavjud emasligi, kadrlar oqimi va ish haqi bilan bog'liq cheklovlari — nodavlat OTMlar oldida jiddiy vazifa sifatida turibdi. Ularni bartaraf etish uchun strategik yondashuvlar, davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan qo'shma dasturlar, pedagoglarni rag'batlantirish mexanizmlari va ilmiy infratuzilmani rivojlanterish zarur.

Xulosa qilib aytganda, nodavlat oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni tanlash va ularning malakasini oshirish siyosatini tizimli va zamonaviy asosda tashkil etish orqali nafaqat ta'lim sifatini, balki jamiyatda ilm-fan, innovatsiya va raqobatbardoshlikni ta'minlashga erishish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli Farmoni. — 2022 yil, 28 yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tartibga solish to'g'risida"gi qarori. — 2021 yil, 10 avgust, №511.
3. Jalolov, N. (2020). Pedagogik mahorat va innovatsiyalar. — Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti.
4. Soliyev, A., & Shodmonov, N. (2021). Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi. — "Ta'lim va innovatsiyalar" jurnali, №4, 33–39-betlar.
5. Юнусова, Д. К. (2022). Повышение квалификации преподавателей в негосударственных вузах Узбекистана: проблемы и решения. — Педагогическое образование и наука, №2, 45–50.
6. Altbach, P. G., & Knight, J. (2007). The Internationalization of Higher Education: Motivations and Realities. Journal of Studies in International Education, 11(3–4), 290–305.
7. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).